

LIFELONG LEARNING

ILMIY-NAZARIY VA METODIK JURNAL
НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ И МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC THEORETICAL AND METHODOLOGICAL JOURNAL



2030 UZBEKISTAN RESEARCH ONLINE
uzjournals.edu.uz



**“LIFELONG LEARNING”
ILMIY-NAZARIY VA METODIK
JURNAL**

**“ LIFELONG LEARNING ”
НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ
ЖУРНАЛ**

**“LIFELONG LEARNING”
SCIENTIFIC-THEORETICAL AND
METHODOLOGICAL
JOURNAL**

№ 1, 2025

Jurnal 2025 -yilda tashkil etilgan.
Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

BOSH MUHARRIR:

Dilova Nargiza Gaybullayevna - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
(Buxoro davlat universiteti Kengash kotibi).

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

1. **Anatoliy Sagdullayev Sagdullayevich** - akademik, tarix fanlari doktori, O'zbekiston milliy universiteti professori
2. **Ochilov Alisher To'lis o'g'li** - tarix fanlari doktori (DSc), professor, Buxoro davlat universiteti
3. **G'afforov Shokir Safarovich** - tarix fanlari doktori, Samarqand davlat universiteti professori
4. **Amimova Aziza Marksovna** - tarix fanlari doktori, Qonunchilik palatasi deputati
5. **Eshov Bahodir Jo'rayevich** - tarix fanlari doktori, Qarshi davlat universiteti professori
6. **Xudoyqulov To'lqin Do'stoboyevich** - tarix fanlari doktori, Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'quv ishlari bo'yicha prorektori.
7. **Xushvaqtov Nabi Olimovich** - tarix fanlari doktori, Shahrisabz davlat muzey-qo'riqxonasi direktori
8. **Akramova Gulbahor Renatovna** – professor, pedagogika fanlari doktori (DSc), Buxoro davlat pedagogika instituti
9. **Mamanazarova Nargiza Komildjanovna** - professor, pedagogika fanlari doktori (DSc), Oriental universiteti professori
10. **Sayfullayeva Gulhayo Ixtiyor qizi** - pedagogika fanlari doktori (DSc), Navoiy davlat universiteti professor
11. **Saidova Mohinur Jonpo'latovna** - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor, Buxoro davlat pedagogika instituti
12. **Qo'ldoshev Rustam Avezmurodovich** - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor, Buxoro davlat pedagogika instituti
13. **Raxmonqulova Nargiz Xadjiakbarovna** - pedagogika fanlari doktori, professor, Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti
14. **Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna** - professor, pedagogika fanlari doktori (DSc), Buxoro davlat texnika universiteti ilmiy kotibi
15. **Musayeva Nodira Nizomiddinovna** - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor Buxoro davlat universiteti

2. G'.B.Shoumarov va bosh. Oila psixologiyasi. Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent 2010.

3. B.M.Karimova, "Psixologiya" o'quv qo'llanma. Toshkent. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002 y.

4. S.X. Jalilova, N.A. G'avibova. Umumiy psixodagnostika. -T.: «Fan va texnologiya», 2018 y.

5. B.B.Djalilov, O.M.Ibrohimova. "O'quvchilarni intellectual rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari" VOLUME 2 | ISSUE 12 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 ASI Factor = 1.7

6. Z.Nishanova, D.Qarshieva, N.Atabaeva, Z.Qurbonova. Psixodagnostika va eksperimental psixologiya. Nizomiy nomidagi TDPU bosmaxonasida nashr qilindi. Toshkent, Yusuf Xos Hojib 103

7. Туник Е.Е.Название-Тест интеллекта Амтхауэра. Анализ и интерпретация данных. Изд. Реч. Санкт-Петербург 2009.

MUSIQA TA'LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB, TALABALARING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI



Mirshayev Ulug'bek Muzafarovich
Buxoro davlat universiteti
Musika ijrochiligi va madaniyat
kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqa ta'limida raqamli texnologiyalardan foydalanishning talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishdagi o'rni va samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli texnologiyalar yordamida o'qitishning ta'lim jarayoniga ta'siri o'rganilib, eksperiment va so'rovnomalar natijalari asosida amaliy xulosalar chiqarildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalardan foydalangan talabalar bilim olishda 20% ga yuqori natijalarga erishdi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar mustaqil ta'limga bo'lgan motivatsiyani oshirib, musiqa asarlarini tahlil qilish va ijrochilik kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam berdi. Tadqiqot natijalari kelajakda musiqa ta'limida innovatsion yondashuvlarni qo'llash zarurligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: Musika ta'limi, raqamli texnologiyalar, mustaqil ish, ijrochilik kompetensiyasi, innovatsion yondashuv, ta'lim samaradorligi.

Raqamli texnologiyalar zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bugungi kunda musiqa ta'limida ham raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish orqali talabalarining mustaqil ta'lim olish jarayonini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalar musiqa ta'limida nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirishga, balki ijrochilik mahoratini

rivojlantirishga, musiqiy tafakkurni shakllantirishga va amaliy ko'nikmalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Talabalar mustaqil ta'lim jarayonida raqamli resurslardan, onlayn platformalardan va multimediya vositalaridan foydalangan holda o'z bilim va ko'nikmalarini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar [1:160]. Musiqa ta'limida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bu texnologiyalar ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Jumladan, zamonaviy texnologiyalar yordamida masofaviy ta'lim shakllari kengayib, talabalar o'zlariga qulay va mos sharoitlarda bilim olish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar [2:99]. Shu bilan birga, raqamli resurslardan foydalanish mustaqil ta'lim jarayonida o'qituvchining rolini o'zgartirib, uning maslahatchi va yo'naltiruvchi sifatidagi faoliyatini kuchaytiradi.

Musiqa o'qituvchilari uchun raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlarga ko'ra, zamonaviy texnologiyalar musiqiy ta'lim sifati va ijodiy faoliyat samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda raqamli platformalar, audio va video tahrirlash dasturlari, virtual o'quv muhitlari, onlayn darslar va mobil ilovalar keng qo'llanilmoqda [3:5]. Bu jarayon nafaqat talabalar bilimni mustahkamlashga, balki ularning ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Musiqa ta'limida raqamli texnologiyalardan foydalanishning yana bir muhim jihati – talabalar uchun interaktiv o'quv materiallarini yaratish va ulardan foydalanish imkoniyatidir. Bu jarayon musiqa nazariyasi, solfedjio, musiqiy asarlar tahlili, musiqa tarixi va ijrochilik san'atini chuqurroq o'rganish uchun samarali vosita bo'lib xizmat qiladi [4:5]. Mustaqil ta'lim jarayonida multimedia vositalari orqali musiqiy asarlarni tahlil qilish, turli ijrochilik uslublarini o'rganish va o'z ijodiy ishlarini yaratish talabalar uchun katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Shunday qilib, musiqa ta'limida raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali talabalar mustaqil ta'lim jarayonida nafaqat o'z bilimlarini mustahkamlash, balki ijodiy va amaliy ko'nikmalarini ham rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa o'z navbatida, musiqa ta'limining sifatini oshirish va zamonaviy talablarga javob beruvchi mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqa ta'limida raqamli texnologiyalarni qo'llashga doir ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu yo'nalishdagi innovatsion yondashuvlar ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. E.Jamilova (2024) o'z tadqiqotida musiqa o'qituvchilarini zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga tayyorlash jarayonini yoritib, ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyatini ta'kidlagan [1:160]. Unga ko'ra, musiqa ta'limi jarayonida raqamli vositalardan foydalanish o'qituvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallashiga yordam beradi. M.Axrorova (2024) o'z tadqiqotida musiqa ta'limi kontekstida kasbiy kompetensiyani shakllantirish tasniflari haqida so'z yuritgan. Uning fikricha, raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish talabalarning mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirib, ularning kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [2:99]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, raqamli ta'lim resurslarining keng

qo'llanilishi nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirishga, balki amaliy mashg'ulotlarni ham sifatli o'tkazishga imkon yaratadi.

S.Omanqulova va D.Samatova (2024) tadqiqotlarida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining ijrochilik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasiga e'tibor qaratganlar. Ularning fikricha, raqamli texnologiyalar yordamida talabalarining ijrochilik mahoratini oshirish, virtual mashg'ulotlar o'tkazish va interaktiv metodlardan foydalanish orqali musiqiy pedagogik tayyorgarlik samaradorligini oshirish mumkin [3:5]. M.Bobokulova (2024) esa musiqa ta'limi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etishda innovatsion yondashuvlar haqida fikr bildirgan. Uning tadqiqotiga ko'ra, zamonaviy texnologiyalar asosida mustaqil ishlarni tashkil qilish talabalarining bilim olish jarayonini individuallashtirishga va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi [4:5]. M.Xalilova (2021) esa maktabgacha ta'lim tashkilotida musiqa ta'lim tarbiyasining dolzarbligi haqida tadqiqot olib borgan. Uning fikriga ko'ra, bolalarining musiqaga bo'lgan qiziqishini oshirishda raqamli texnologiyalar muhim rol o'ynaydi. Multimediyaviy ta'lim materiallari, interaktiv darsliklar va virtual musiqa mashg'ulotlari bolalarining musiqiy didini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi [5:444]. Yuqoridagi adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, musiqa ta'limida raqamli texnologiyalardan foydalanish talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda juda muhim ekani ayon bo'ladi. Zamonaviy raqamli resurslar nafaqat musiqa nazariyasini o'rganishda, balki ijrochilik kompetensiyalarini rivojlantirishda ham samarali ekani ko'plab tadqiqotlarda qayd etilgan. Shu bois, musiqa ta'limida raqamli texnologiyalarni joriy etish nafaqat o'quv jarayonini boyitadi, balki talabalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Ushbu tadqiqotda musiqa ta'limida raqamli texnologiyalar yordamida talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish imkoniyatlarini aniqlash maqsad qilingan. Tadqiqot davomida eksperimental va kuzatuv metodlaridan foydalanildi. Eksperimentda musiqa ta'limi yo'nalishida tahsil olayotgan 100 nafar talaba ishtirok etdi. Ular ikkita guruhga ajratildi: 50 nafari raqamli texnologiyalardan foydalangan holda mustaqil ish olib bordi, 50 nafari esa an'anaviy usulda o'rganishni davom ettirdi. Tadqiqot davomida raqamli resurslardan foydalangan holda o'qigan talabalar uchun interaktiv darsliklar, onlayn platformalar va multimediya materiallari taqdim etildi. Tahlil jarayonida talabalar bilim darajasi oldindan va tadqiqot yakunida test sinovlari yordamida baholandi. Shuningdek, ularning o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun sifat va samaradorlik ko'rsatkichlari o'rganildi. Intervyu va so'rovnomalar yordamida talabalar fikrlari to'plandi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalardan foydalangan talabalar sezilarli darajada yuqori natijalarga erishdi. Dastlabki test sinovlari natijalariga ko'ra, ikkala guruhdagi talabalar o'rtacha 60-62% natija ko'rsatgan bo'lsa, yakuniy test natijalarida raqamli texnologiyalar yordamida mustaqil ta'lim olgan talabalar o'rtacha 82% natijaga erishdi. An'anaviy usulda tahsil olgan talabalar esa 67% natija ko'rsatdi.

1-jadval. Dastlabki va yakuniy baholash natijalari

Guruh	Dastlabki test (%)	Yakuniy test (%)	O'sish (%)
Raqamli texnologiyalar bilan ta'lim olgan talabalar	62	82	20
An'anaviy usulda ta'lim olgan talabalar	60	67	7

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim olgan talabalar bilim darajasini o'rtacha 20% ga oshirgan bo'lsa, an'anaviy usuldagi talabalar bilim darajasi atigi 7% ga o'sgan. Bu esa raqamli ta'lim vositalarining samaradorligini isbotlaydi. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda ajratilgan vaqt ham tahlil qilindi. Raqamli texnologiyalarni qo'llagan talabalar haftasiga o'rtacha 12 soat mustaqil ish bilan shug'ullangan bo'lsa, an'anaviy usuldagi talabalar atigi 8 soat vaqt ajratgan. Bunda raqamli texnologiyalar ta'lim jarayoniga bo'lgan motivatsiyani oshirgani kuzatildi. So'rovnoma natijalari ham raqamli texnologiyalarning samaradorligini tasdiqlaydi. Talabalarga raqamli texnologiyalar ularning musiqa ta'limidagi muvaffaqiyatiga qanday ta'sir qilganligi haqida savollar berildi.

2-jadval. Tajribadan keying olingan natijalar

Savollar	Raqamli texnologiyalar guruhi (%)	An'anaviy usul guruhi (%)
Mustaqil ish qilishga bo'lgan qiziqish oshdi	78	55
Musiqa tahlili ko'nikmalari yaxshilandi	85	60
Ijrochilik mahorati oshdi	82	58
Mustaqil ta'limga ajratilgan vaqt (haftasiga soat)	12	8

So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalar asosida o'qigan talabalar 78% hollarda o'z bilimlarini mustaqil ravishda chuqurlashtirishga intilgan bo'lsa, an'anaviy usuldagi guruhda bu ko'rsatkich 55% ni tashkil qildi. Shuningdek, musiqa asarlarini tahlil qilish qobiliyatini oshirishda raqamli texnologiyalar guruhidagi talabalar 85% samaradorlik ko'rsatdi, an'anaviy usulda esa bu natija 60% bo'ldi. Ijrochilik mahoratini oshirish bo'yicha ham raqamli texnologiyalar samaraliroq ekani aniqlandi. Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar talabalarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini sezilarli darajada oshiradi va ularning bilim olish jarayonini yanada samarali qiladi. Talabalar tomonidan berilgan fikrlar ham shuni tasdiqlaydi: ular interaktiv materiallar va multimediya darsliklari orqali musiqa ta'limini yanada qiziqarli va tushunarli shaklda o'rganishgan. Eksperiment yakunida talabalar bilim olish jarayoni bo'yicha fikrlarini bildirishdi. Ularning 90% dan ortig'i raqamli texnologiyalardan foydalanish nafaqat bilim olishni osonlashtirgani, balki ularni ijodiy faoliyatga ham undagani haqida ta'kidlashdi. Ayniqsa, musiqa asarlarini eshitish, tahlil qilish va ijro etish uchun maxsus dasturlar va platformalar bu jarayonni yanada interaktiv holga

keltirgani ma'lum bo'ldi. Natijalarga asoslanib, musiqa ta'limida raqamli texnologiyalardan foydalanish an'anaviy usullar bilan solishtirganda samaraliroq ekanini isbotlandi. Kelgusida bu metodikaning yanada rivojlantirilishi va kengroq joriy etilishi lozim. Shu boisdan, musiqa ta'limi muassasalari uchun maxsus raqamli platformalar va vositalarni ishlab chiqish, ularni amaliyotga keng joriy etish muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalardan foydalanish musiqa ta'limida talabalar mustaqil ishlarini samarali tashkil etish uchun muhim omildir. Eksperiment davomida raqamli texnologiyalardan foydalangan talabalar bilim olishda sezilarli yutuqlarga erishgan bo'lsa, an'anaviy usuldagi talabalar natijalari nisbatan past bo'ldi. Ushbu farq, asosan, interaktiv ta'lim materiallari, multimediya resurslari va onlayn platformalar orqali talabalarning mustaqil ta'lim olishga bo'lgan motivatsiyasi oshgani bilan bog'liq. Shuningdek, so'rovnoma natijalari ham raqamli texnologiyalarning ta'lim sifati va talabalar mustaqilligini oshirishda ijobiy rol o'ynashini tasdiqlaydi. Mustaqil ta'limga ajratilgan vaqt, musiqa asarlarini tahlil qilish qobiliyati va ijrochilik mahoratining rivojlanishi bo'yicha natijalar buni yaqqol ko'rsatib turibdi. Shu bilan birga, ayrim talabalar raqamli texnologiyalardan foydalanishda texnik muammolarga duch kelganliklarini ham qayd etishdi. Kelajakda musiqa ta'limi uchun moslashtirilgan maxsus raqamli vositalarni ishlab chiqish va ularni kengroq joriy etish zarur. Bundan tashqari, o'qituvchilarni raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishga o'rgatish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalarning musiqa ta'limida talabalar mustaqil ishlarini samarali tashkil etishda katta imkoniyatlar yaratishini tasdiqladi. Eksperimental guruhda o'qigan talabalar bilim darajasini 20% ga oshirishga erishdi, bu esa an'anaviy ta'lim usuli bilan solishtirganda ancha yuqori natija hisoblanadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar mustaqil ta'limga ajratilgan vaqtni oshirish, musiqa asarlarini tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish va ijrochilik mahoratini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, talabalar raqamli texnologiyalar yordamida o'qish jarayoniga ko'proq qiziqish bildirgan va o'z bilimlarini mustaqil ravishda chuqurlashtirishga intilgan. Kelajakda musiqa ta'limida raqamli texnologiyalarni yanada kengroq joriy etish, maxsus raqamli platformalar yaratish va o'qituvchilarni ushbu texnologiyalarni samarali qo'llashga tayyorlash lozim. Ushbu yondashuv musiqa ta'limi sifatini oshirish va talabalar bilimini yanada chuqurlashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamilova, E. M. (2024, January). Musiqa o'qituvchisini zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga tayyorlash. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON ADVANCE SCIENCE AND TECHNOLOGY (Vol. 1, No. 1, pp. 160-164).

2. Axrorova, M. M. (2024). MUSIQA TA'LIMI KONTEKSTIDA KASBIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH TASNIFLARI. Oriental Art and Culture, 5(6), 99-105.

3. Omanqulova, S. N., & Samatova, D. S. (2024). BO‘LAJAK MUSIQA TA‘LIMI O‘QITUVCHILARINING IJROCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. Nordic_Press, 5(0005).

4. Bobokulova, M. (2024). MUSIQA TA‘LIMI YO‘NALISHIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARNING MUSTAQIL TA‘LIMINI TASHKIL ETISHGA INNAVATSION YONDASHUV. Nordic_Press, 5(0005).

5. Xalilova, M. M. (2021). MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTIDA MUSIQA TALIM TARBIYASINING DOLZARBLIGI. Scientific progress, 1(5), 444-448.

6. Shukurdinovna, S. O., Shakirovna, R. M., Kakhramonjonovna, K. Z., Zebiniso, K., & Vaxobjonovich, E. A. (2024). Motivational Approaches On Teaching English To Multi-Level IT Students. Library of Progress-Library Science, Information Technology & Computer, 44(3).

7. Ergashev, A. (2022). MUSIQA TA‘LIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 545-554.

8. Mahkamova, S. R., & Obidova, S. P. (2021). MAKTABGACHA TA‘LIM MUASSASALARIDA BOLALARNI MUSIQIY TARBIYALASH VA TA‘LIM BERISH. Scientific progress, 1(3), 118-121.

9. Mirshayev Ulugbek Muzafarovich 2023. DISTINCTIVE FEATURES IN THE ORGANIZATION OF INDEPENDENT WORK IN THE MUSICAL ACTIVITIES OF STUDENTS. *Academia Science Repository*. 4, 04 (Apr. 2023), 994-999.

RAHIM VOHIDOVNING O‘ZBEK ADABIYOTI TARAQQIYOTIDA TUTGAN O‘RNI



Saidova Nodira Mustakimovna,
saidova@mail.ru

Abstrakt: *Maqola navoiyshunos olim Rahim Vohidovning “Yog‘di o‘t ustiga qor...” nomli risolasi sharhiga bag‘ishlangan. Adabiyotshunos olim Rahim Vohidovning mumtoz matn talqinidagi mahoratiga, uning mohir talqinshunos olim ekanligiga, tadqiqot uslublariga alohida urg‘u berilgan.*

Kalit so‘zlar: Nazm, navoiyshunoslik, talqin, tahlil, tadqiqot, germeneytika, g‘azaliyot.

Абстракт: *Статья наваиста Рахима Вахидова “Выпал снег на траве...”. Особый акцент ученого-литературоведа Рахима Вахидова в*

PEDAGOGIK INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI	69
<i>Hakimova Nargiza Supxonovna, Jumaqulova Charosxon Ravshanovna</i>	
TA'LIM TARBIYA JARAYONLARIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI KREATIV FIKRLASHGA YO'NALTIRILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR	74
<i>Hakimova Nargiza Supxonovna, Kattayeva Mehrangiz Nabiyevna</i>	
“OILA PEDAGOGIKASI” FANI ASOSIDA TALABALARDA OILAVIY QADRIYATLARGA IJOBIY MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH (PEDAGOGIK OLIY TA'LIM YO'NALISHI TALABALARI MISOLIDA)	80
<i>Hamdamova Sitara Rustam qizi</i>	
FIZIKA VA ASTRONOMIYA FANINI O'QITISHDA BUYUK AJDODLARIMIZNING ILMIY MEROSLARIDAN FOYDALANISH	87
<i>Avezmuratov Ollayor, Avezmuratova Zebo Allayarovna</i>	
BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INKLYUZIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH METODIKASI	93
<i>Turdiyeva Mohira Juraqulovna</i>	
TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IQTISODIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA MODUL TIZIMINING SAMARADORLIGI	97
<i>Matyoqubov Xamidjon Rozzaqovich, Kurbanov Umirbek Muhammedovich, Yo'ldoshboyeva Sharifa Xushnud qizi,</i>	
BOLALAR IJODIY RIVOJLANISHIDA HAMKORLIK TA'LIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	104
<i>Aslanova Nargiza Xakimovna</i>	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA EKOLOGIK TARBIYA BERISHDA KOLLABORATIV YONDASHUV	108
<i>Aslanova Nozima Xakimovna</i>	
O'QUVCHILARNING INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI AMTXAUER VA VEKSLER METODIKASI YORDAMIDA ANIQLASH	111
<i>Sharipov Abdumalik Axmadovich</i>	
MUSIQA TA'LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB, TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI	115
<i>Mirshayev Ulug'bek Muzafarovich</i>	

“LIFELONG LEARNING”

ILMIY-NAZARIY VA METODIK JURNAL

№ 1, 2025

Tahririyat manzili: 200100, O‘zbekiston Respublikasi,
Buxoro shahri, Ibroxim Mo‘minov ko‘chasi, uy:28/2 xonadon:22

Telegram raqami: +998 (97) 736-20-11